

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI

ADILOV ZAFAR RAVSHANOVICH

NAMANGAN SHAHRI YODGORLIKLARI ARXITEKTURASI VA ULAR
ASOSIDA TURIZM INFRASTRUKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH
YO‘LLARI

18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta’irlash va tiklash

ARXITEKTURA bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on architecture**

Adilov Zafar Ravshanovich

Namangan shahri yodgorliklari arxitekturasi va ular asosida turizm
infrastrukturasini takomillashtirish yo'llari3

Адиллов Зафар Равшанович

Архитектура памятников города Наманган и методы
совершенствования туристической инфраструктуры на ее основе.....23

Adilov Zafar Ravshanovich

Architecture of monuments of Namangan city and methods of improving
tourist infrastructure on its basis43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works47

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI

ADILOV ZAFAR RAVSHANOVICH

NAMANGAN SHAHRI YODGORLIKLARI ARXITEKTURASI VA ULAR
ASOSIDA TURIZM INFRASTRUKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH
YO‘LLARI

18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta’irlash va tiklash

ARXITEKTURA bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/A101 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mamatmusaev Toxir Shaydulovich**
arxitektura fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Sultonova Dilshoda Namazboyevna**
arxitektura fanlari doktori, dotsent

Dosmetova Zuxra Shavkatovna
arxitektura fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 20-iyul soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko'chasi, 7-uy. Arxitektura fakulteti majlislar zali. Tel.: +99871 241-80-02, faks: +99871 241-80-02, web: www.taqi.uz; e-mail: devon@taqu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (110 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100058, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy. Tel.: +99855 508-02-89).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 08-iyul kuni tarqatildi.

(2023-yil 07-iyul dagi 43 raqamli reestr bayonnomasi).

K.Dj. Rahimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
v.v.b., texnika fanlari doktori, professor

Sh.S. Reyimbaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, arxitektura fanlari nomzodi, dotsent

A.A. Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arxitektura
fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyoda tarixiy shaharlarni saqlash va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash hamda ulardan turizm maqsadida foydalanish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. BMT, YUNESKO, ICOMOS kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan madaniy merosni saqlash va ularni kelgusi avlodga yetkazishga doir "Butun jahon madaniy va tabiiy merosini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (1972); Tarixiy shaharlarni himoya qilish haqidagi xalqaro xartiya (Vashington xartiyasi, 1987); Obidalarni, inshootlar guruhini va diqqatga sazovor joylarni ro'yxatga olishning asosiy qonun-qoidalari (1996); Tahlil qilish, konservatsiya va me'moriy meroslarning tuzilishini qayta tiklashning asosiy qonun-qoidalari (2003); Madaniy meros hisoblangan - tuzilma, ob'ekt vayronalarining atrofini saqlab qolish to'g'risidagi Sian deklaratsiyasi (2005)"¹ kabi xalqaro hujjatlar bu sohada naqadar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada tarixiy shaharlar mavqeini saqlab qolish, ularning strukturaviy tuzilishini saqlash, muhofaza zonalarini yaratish, samarador turistik marshrutlarni ishlab chiqish, shuningdek me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ishlarini sifatli amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Dunyoda arxitektura merosini o'rganish va saqlash, tarixiy hudud turizm infratuzilmasini to'g'ri shakllantirish, ularning zamonaviy arxitektura bilan uyg'unligini ta'minlash borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda tarixiy shaharlar, mahallalarni rekonstruksiya qilish, yodgorliklarni sifatli ta'mirlash, ob'ektlarning grafik rekonstruksiyasini bajarish, qadimgi shaharlarning tarixiy ko'rinishini saqlash, mavjud turistik marshrutlarning yutuq va kamchiliklarini tahlil etgan holda yangi turistik marshrut yo'nalishlarini ishlab chiqish kabilar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda turizmni rivojlantirish borasida tarixiy shaharlarimizda salmoqli ishlar amalga oshirilib, ularning mavqeini tiklash, bunda hududni tarixiy bo'lmagan ob'ektlardan holi qilish, ob'ektning turistik marshrutlardagi o'rnini belgilash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "Biz xalqimizning madaniy merosini saqlashimiz va kelajak avlodlarga yetkazishimiz kerak. Ayni paytda uning tarkibiga 7000 dan ortiq ob'ektlar kiradi. Afsuski, so'nggi paytlarda ba'zi bebaho ob'ektlarga yetkazilgan zarar bu masalaga beparvo munosabatda ekanligimizni ko'rsatib qo'ydi".² Bu borada mamlakatimizda mavjud tarixiy shaharlar va me'moriy ob'ektlarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularni rekonstruksiya qilish takliflarini ishlab chiqish, turizm industriyasini rivojlantirish, qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks targ'ib qilish ishlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PF-5030-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 16 yanvardagi PF-5181-son "Moddiy, madaniy va arxeologik meros ob'ektlaridan foydalanishni va muhofazasini

¹ Birlashgan boshqaruv rejasi, 2017-2022 Ichan qal'a, Umumjahon madaniy merosi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Parlamentga yo'llagan murojaati. 2020 yil.

takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2014 yil 21 iyuldagi PQ-200-son “Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori va shu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Namangan shaharsozligi tarixi va madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi, moddiy-madaniy meroslari va ularning badiiy qiymatini aniqlashga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot ishlarini V.V.Bartold³, YU.A.Zadneprovskiy⁴, A.Anorboev⁵, M.A.Yusupova⁶, H.Hasanov⁷, A.Juvonmardiev⁸ H.Vamberi, Ya.G‘.G‘ulomov, P.SH.Zohidov, M.X.Isamiddinov, Z.M.Akramov, A.Aliev, T.Ro‘zibaev⁹, I.Azimov¹⁰, U.Samatov¹¹ va boshqalar tomonidan olib borilgan. O‘tgan davr mobaynida viloyat tarixiy shaharlari va madaniy meros ob‘ektlarining u yoki bu jihatlariga qaratilgan salmoqli tadqiqotlar natijalari maqolalar, monografiyalar hamda dissertatsiyalar misolida nashr ettirilgan. Tarixiy shaharlarning evolyutsiya jarayonini o‘rganishda zardo‘shliylarning “Avesto”, Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard (Erning surati kitobi)”, Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai Sa‘dayn va Majmai Bahrayn”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Ibratning “Farg‘ona tarixi” va boshqa tarixiy asarlar muhim manbalar hisoblanadi.

Shuningdek, shaharlar tarixi va me‘morchiligiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, jumladan, M.Q.Ahmedov¹², M.A.Yusupova¹³, Sh.D.Asqarov¹⁴, T.F.Qodirova, N.B.Baklanov, V.A.Lavrov, D.A.Nozilov¹⁵, YU.Pisarchuk, X.Sh.Po‘latov¹⁶,

³ Бартольд В.В. Сочинения, 3-том. Стр. 211-212.

⁴ Заднепровский Ю.А. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // Древний город Средней Азии. Краткие тезисы докладов к заседанию на конференции, посвященной полевым исследованиям в области археологии и этнографии в 1972 г. – Ленинград, 1973.

⁵ Anorboev A. Mug‘tepa va uning atrofiga olib borilgan 2002 yildagi arxeologik tadqiqotlar // O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar 2002 yil – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2003; Anarbaev A. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент: «Taffakur», 2013. – С. 485; Анарбаев А.А. Касан город-ставка, лагерь-крепость// Фергана в древности и средневековье. Сб. статей, подготовленных в честь 70-летия со дня рождения акад. Российской Народной Академии наук Ю.А. Заднепровского. – Самарканд, 1994. – С.25.

⁶ Юсупова М.А. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана. На примере «новых городов» Ферганской долины, конца XIX-начало XX в. – Т.: 2005 й.

⁷ Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: 1965 y.

⁸ Juvonmardiev A. Namiygan – aziz va nomdor kishilar shahri, Juchkevich A.V. Toponimika Belorussii. – Minsk, 1968 g.

⁹ Рўзибаев Т, Ҳожимирзаев М. Наманганская область. Туркун китоб. «Ўзбекистон». 1981 й., 17-б.

¹⁰ Azimov I. Farg‘ona vodiysining arxitektura yodgorliklari. Yo‘l ko‘rsatkich. – T.: «O‘zbekiston», 1986.

¹¹ Samatov U. Usta Qirg‘iz izlari-izdoshlari. – Namangan: 1999 y.

¹² Ahmedov M.Q. O‘rta Osiyo me‘morchiligi tarixi. T.: «O‘zbekiston» 1995.

¹³ Юсупова М.А. Эволюция зодчества Бухары XVI-начала XVII вв. // ОНУ, № 9-11. Фан. Тошкент, 1997. С. 97-109.

¹⁴ Аскарлов Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. – Т.: 2014

¹⁵ Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me‘morchiligida interer. Fan. Toshkent, 2005 y.

¹⁶ Po‘latov X.Sh., Nazarov O‘.O. Arxitektura nazariyasi masalalari: Tosh va yog‘och orderlarining qiyosiy grafik-analitik tahlili (esse). «Fan va texnologiya». Toshkent, 2017;

¹⁶ Захидов П., Пулатов Х. Мукарнас в архитектуре Узбекистана (X-XX вв.). Учебное пособие. Ташкент, 2002.

Sh.Z.Nurmuxamedova¹⁷, B.Dedaxanov¹⁸, O.M.Salimov¹⁹, K.D.Raximov²⁰, A.S.O‘rolov²¹, A.A.Ziyayev²², T.Shirinov, B.X.Matbabaev²³, T.Sh.Mamatmusaev, G.S.Durdieva, SH.S.Reyimbaev, D.N.Sultonova va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan. Me‘moriy yodgorliklarni qurilish materiallarini va konstruktiv tuzilishini o‘rganishga doir ilmiy tadqiqot ishlari (XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hozirgi vaqtgacha) E.M.Gendel, A.A.Asanov, V.L.Voronina, N.S.Grajdankina, K.S.Abdurashidov, A.A.To‘laganov, N.A.Samigov, E.Q.Qasimov, K.I. Shtark, A.Toshtemirov va Z. Shodmonova kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Ammo Namangan viloyati shaharlari tarixi, me‘moriy yodgorliklarining xususiyatlarining kompleks tarzda o‘rganilmaganligi, turizm yo‘nalishlarining samarador usullarini ishlab chiqish, tarixiy me‘moriy yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish, ta‘mirlash va foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida tarixiy yodgorliklarning ma‘lumotlar bazasining shakllantirilmaganligi ushbu mavzuni chuqurroq o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F.1-86 raqamli “O‘zbekiston arxitekturasining mustaqillik mafkurasi asosida shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish va samarali rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish” (2011-2016) mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Namangan shahri yodgorliklari arxitekturasini ochib berish, turizm infrastrukturasi takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

arxitekturaviy obidalar bo‘yicha mavjud manbalarni, arxiv materiallarini o‘rganish va to‘plangan materiallarni umumlashtirish;

arxitekturaviy yodgorliklarning funksiyasiga ko‘ra kompozitsiyaviy tuzilishini tahlil qilish;

yodgorliklarda qo‘llanilgan bezaklar va qurilish materiallari bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash;

tarixiy hududlarda turistik marshrutlarni, landshaft arxitekturasini shakllantirish tajribalarini o‘rganish;

3D modellashtirish hamda zamonaviy AKT dasturlarini qo‘llagan holda arxitektura yodgorliklarini grafik tiklash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Namangan viloyatining qadimgi davr shaharsozligining shakllanish bochqichlarini o‘rganish;

¹⁷ Нурмухамедова Ш.З. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода. Монография, Изд. «Fan va texnologiya». Toshkent, 2018.

¹⁸ Dedaxanov B. Farg‘ona vodiysi arxitekturasini qadimgi va boshlang‘ich o‘rta asrlardagi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, 2021 yil.

¹⁹ Салимов А.М. Сохранение и использование памятников архитектуры Узбекистана. Фан. Toshkent, 2009.

²⁰ Raximov K.D. Bog‘-parklarni loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlari. O‘quv qo‘llanma, SamDAQI. Samarqand, 2017.

²¹ O‘rolov A.S. Me‘moriy shakllarni uyg‘unlashtirish va bezash. Darslik, SamDAQI. Samarqand, 2003.

²² Зияев А.А. Ташкент. Часть I. Древность и средневековье. – Т.: 2009.

²³ Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Оборонительные сооружения древней Ферганы (кон. II тыс. до н.э. – нач. I тыс. н.э.). – Ташкент: «Shidasp», 2011. – 176 с.

Namangan viloyatining o'rta asrlar davri va Chor Rossiyasi davri shaharsozlik bosqichlarini tahlil qilish;

Namangan shahrida arxitektura yodgorliklardan foydalanib turistik marshrutlarni shakllantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Namangan shahrida joylashgan arxitektura ob'ektlari va turistik marshrut yo'nalishlari olingan.

Tadqiqotning predmetini shahardagi arxitektura obidalarining rejaviy va kompozitsion yechimlari, samarali turizm infrastrukturasi shakllantirish yo'llari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda statistik, qiyosiy, arxiv materiallari, me'moriy loyihalarni tahlil qilish, monitoring-kuzatuv, tajriba-sinov, intervyu kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mulla Qirg'iz madrasasining tarhiy yechimi o'rta asrlarga mansub madrasalar tipologiyasidan farq qilgan holda hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib besh burchak tarzda, hozirda saqlanmagan Saidqulibek madrasasi, Ayritosh va Ayritom masjidleri ro'parasida qo'sh uslubida qurilganligi, 1972, 1985, 2004, 2011 yillarda uch marotaba ta'mirlanganligi dalillangan;

Atoullixon To'ra masjidi 1915-1922 yillarda XIX asrning boshida qurilgan eski masjid o'rnida bunyod etilganligi, O'rta Osiyodagi XVI asrdan keyin qurilgan obidalar ichida eng katta gumbazga egaligi, masjid tipologiyasi XVI asrda Buxoro viloyati Vangazi qishlog'ida qurilgan Tosh masjid tipologiyasiga o'xshashligi, masjidda gumbaz diametrini kattalashtirish evaziga ichkari ustunlarning kamaytirilganligi va yaxlit muhitning ta'minlanganligi isbotlangan.

Namangandagi maqbaralar (Xo'jamning qabri, Mavlaviy Namangoniy va boshqalar) kompozitsiyasi asosan yirik peshtoqli va gumbazli tarzda bo'lganligi, maqbara-xonaqoh yechimdagi tipologiyada shakllantirilganligi, maqbara-xonaqohlar ziyoratchilar uchun turar joy sifatida ham foydalanilganligi aniqlangan;

Namangan shahrining turizm infrastrukturasi boyitishga, ulardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi taklif loyihalari ishlab chiqilib, turistik marshrut yo'nalishlari shakllantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Namangan shahri arxitektura yodgorliklari bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan va yodgorliklar tipiga qarab ajratilgan kompleks jadval tuzilgan;

Mulla Qirg'iz madrasasi, Xo'jamning maqbarasi va Atoullixon To'ra masjidi intererlariga zamonaviy AKT vositalari yordamida virtual sayohat uyushtirishni tashkil etish takliflari ishlab chiqilgan;

Namangan shahri tarixiy arxitektura yodgorliklari bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi suvoriy.uz/sayohat sayti yaratilgan va ushbu sayt bazasidan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi arxitektura fanida tan olingan ilmiy yondashuv va usullar orasida birlamchi moddiy madaniyat manbalariga bag'ishlangan adabiyotlar, arxeologik va arxiv materiallariga murojaat qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning tegishli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi, xalqaro va respublika konferensiyalarida, ilmiy seminarlarda

aprobatsiyadan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning ilmiy ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston me'morchiligi tarixi va nazariyasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish, shuningdek tarixiy shaharlardagi me'moriy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash loyihalarini bajarishda xalq me'morchiligining o'ziga xos an'analaridan samarali foydalanish imkoniyatini oshirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxitektura va qurilish tashkilotlarining faoliyatida, qadimiy shaharlarni rekonstruksiya qilish bosh rejalarni ishlab chiqishda, me'moriy obidalarini ta'mirlash va ularning muhofaza zonalarini aniqlashda, milliy uslublarni qo'llagan holda zamonaviy me'morchilikni rivojlantirishda hamda oliy ta'lim muassalarida arxitektura va shaharsozlik sohasidagi fanlar mazmunini to'ldirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Namangan me'moriy yodgorliklarini saqlash va ta'mirlash metodologiyasini takomillashtirish mavzusi yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

Mulla Qirg'iz madrasasining tarhiy yechimi o'rta asrlarga mansub madrasalar tipologiyasidan farq qilgan holda hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib besh burchak tarzda, hozirda saqlanmagan Saidqulibek madrasasi, Ayritosh va Ayritom masjidleri ro'parasida qo'sh uslubida qurilganligi, 1972, 1985, 2004 yillarda uch marotaba ta'mirlanganligi dalillanganligiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2022 yil 22 noyabrdagi 02-06/3928-son ma'lumotnomasi). Natijada Mulla Qirg'iz madrasi haqidagi ilmiy ma'lumotlarning boyishiga, madrasa yuzasidan aniq qarashlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratilgan;

Atoullixon To'ra masjidi 1915-1922 yillarda XIX asrning boshida qurilgan eski masjid o'rnida bunyod etilganligi, O'rta Osiyodagi XVI asrdan keyin qurilgan obidalar ichida eng katta gumbazga egaligi, masjid tipologiyasi XVI asrda Buxoro viloyati Vangazi qishlog'ida qurilgan Tosh masjid tipologiyasiga o'xshashligi, masjidda gumbaz diametrini kattalashtirish evaziga ichkari ustunlarning kamaytirilganligi va yaxlit muhitning ta'minlanganligiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2022 yil 22 noyabrdagi 02-06/3928-son ma'lumotnomasi). Natijada Namangan viloyatida qurilgan masjidlar tipologiyasi haqida ma'lumotlar olish imkoniyati oshgan;

Namangandagi maqbaralar (Xo'jamning qabri, Mavlaviy Namangoniy va boshqalar) kompozitsiyasi asosan yirik peshtoqli va gumbazli tarzda bo'lganligi, maqbara-xonaqoh yechimdagi tipologiyada shakllantirilganligi, maqbara-xonaqohlar ziyoratchilar uchun turar joy sifatida ham foydalanilganligiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2022 yil

22 noyabrdagi 02-06/3928-son ma'lumotnomasi). Natijada tarixiy ziyoratgoh hududlarida turizm infrastrukturasi boyishiga va ziyoratchilarga qulay imkoniyatlar yaratilishiga erishilgan;

Namangan shahrining turizm infrastrukturasi boyitishga, ulardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi taklif loyihalari ishlab chiqilib, turistik marshrut yo'nalishlari shakllantirilganligiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2022 yil 22 noyabrdagi 02-06/3928-son ma'lumotnomasi). Natijada yodgorliklar atrofini obodonlashtirish, muhofaza zonasini hamda tarixiy muhitni shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, respublika va xalqaro konferensiyalarda 6 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 3 ta va xorijiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya avtoreferatining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan hamda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va Dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Namangan viloyati shaharsozligi. Umumiy tavsif**" deb nomlanib, uch bo'limdan iborat. Ushbu bobda Farg'ona vodiysi shaharlari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda ularning adabiyotlarda yoritilishi tahlil qilinib, jumladan, Namangan viloyatining qadimgi, o'rta asrlar va Chor Rossiyasi davrlaridagi shaharsozligiga umumiy tavsif berilgan.

Bobning "*Qadimgi davr shaharsozligi*" deb nomlangan birinchi bo'limida Farg'ona vodiysi hududida shaharlarning paydo bo'lishi hamda rivojlanish jarayoni haqida so'z boradi. Farg'ona vodiysi shaharsozligi va arxitekturasi rivojlanish bosqichlarini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin: Chust (mil. avv. XII-VII asrlar); Eylaton (mil. avv. VII-III asrlar); Sho'robashod (mil. avv. IV-I asrlar); Marhamat (mil. I-IV asrlar).

Farg'ona vodiysi shaharsozligining faol rivoji iqtisodiyotning o'sishi va sun'iy sug'orish rivoji, aholi sonining ortishi, yangi qabilalarning ko'chib kelishi, hamda chorvachilik rivoji va foydali qazilmalari, boy konlari mavjudligi bilan bog'liqdir. Shaharlarning shakllanish jarayonlari Chust davriga to'g'ri kelib, bunda yirik

Dalvarzin yodgorligi Norin va Qoradaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 25 gektar bo'lgan. Shahar uch qismdan iborat bo'lgan. Shundan turar joy qismi 18 gektarga yaqin, chorva uchun joy 5 gektar va qal'a maydoni 2,2 gektarni tashkil etgan. Dalvarzin yodgorligi joylashgan hudud hozirgi Namangan viloyati Namangan tumani hududiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari Ashqaltepa shahri hududi 13 gektar, Chust va Xojambog' hududi 4 gektar, Dehqontepa hududi esa 5 gektar bo'lgan. Ushbu manzilgohlar o'ziga xos vohasimon shahar-davlat bo'lib, bu shaharlar "yopiq, iqtisodiy o'ziga xos qurilmalar yig'indisini" ifodalagan.²⁴

Umuman olganda, qadimgi davrda Farg'ona vodiysida ham respublikamizning boshqa tarixiy hududlarida bo'lgani kabi shaharsozlik va arxitekturaning rivoj topganligini ko'rish mumkin. Chust, Eylaton va Sho'robashod davrlarida shaharlar asosan tepaliklarda joylashib, ularning shakli ushbu hudud reliefi tuzilishiga o'xshash tarzda shakllangan. Marhamat davrida shaharlar ko'proq to'g'ri to'rtburchak shaklida rivojlangan.

Bobning "*O'rta asrlar davri shaharsozligi*" deb nomlangan ikkinchi bo'limida shaharlarning ushbu davrdagi strukturaviy tuzilishi haqida so'z boradi. Farg'ona vodiysi shaharlarining o'rta asrlardagi strukturasi O'rta Osiyodagi boshqa shaharlar strukturasi o'xshash tarzda shakllangan.

Farg'ona ilk o'rta asrlarda (V-VIII aa.) Shosh, So'g'd va Ustrushona bilan uzviy iqtisodiy va siyosiy hamda madaniy aloqalarni o'rnatadi va shu asosda hududning arxitekturasini rivojlanib boradi.²⁵ Bu davrda O'sh, Koson, Andijon, Quva, Pop kabi "o'troq aholi va ko'chmanchi yilqichilar orasida o'zaro aloqa tranzit markazlari rolini o'ynovchi"²⁶ shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Qoraxoniylar davlatining chegaraviy xonligi poytaxti dastlab Koson²⁷, so'ngra Axsikent bo'lgan. Masalan, Kosondagi shahriston yaqinida turk bosqinchilarining "shaharga va atrofdagi hududga nisbatan baland nuqtada o'rnatilgan" saroyi mavjud bo'lgan.²⁸

Axsikent haqida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" kitobida quyidagicha keltiradi: "Sayhun suyining shimoli tarafidag'i qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur. Andijondin g'arb sori to'qqiz yig'och yo'ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayxun daryosi qo'rg'onining ostidin oqar. Qo'rg'oni baland jar ustida voqe bo'lubtur.

²⁴ Заднепровский Ю.А. К истории оазисного расселения в первобытной Средней Азии // КСИА. – М., 1981. – № 167. – С. 25; Dedaxanov B. Farg'ona vodiysi arxitekturasini qadimgi va boshlang'ich o'rta asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Arx.f.d., prof. Nurmuxamedova Sh.Z. ilmiy rahbarligida tayyorlangan arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, 2021 y.

²⁵ Грицина А.А. О связях древних городов Уструшаны и Южной Ферганы (в связи с возрстом города Маргилана) // Роль города Маргилана в истории мировой цивилизации // Материалы международной конференции, посвященной 2000-летию юбилею города Маргилана. – Ташкент – Маргилан, 2007 г. – С. 29-37. Dedaxanov B. Farg'ona vodiysi arxitekturasini qadimgi va boshlang'ich o'rta asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Arx.f.d., prof. Nurmuxamedova Sh.Z. ilmiy rahbarligida tayyorlangan arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, 2021 y.

²⁶ Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Андижан. – Ташкент, 2011. – С. 22.

²⁷ Анарбаев А. Касан город-ставка, лагерь-крепость // Фергана в древности и средневековье. Сб. статей, подготовленных в честь 70-летия со дня рождения акад. Ю.А. Заднепровского. – Самарканд, 1994. – С. 25.

²⁸ Воронина В.Л. Раннесредневековый город Средней Азии // СА. – М., 1959. – №1. – С. 92.

Xandaqining o'rniga amiyq jarlardur. Umarshayx mirzokim, muni poytayt qildi, bir-ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur. Mahalloti qo'rg'ondin bir shar'iy yiroqroq tushubtur.”²⁹

O'rta asrlarda Namanganda bir qancha yirik shaharlar shakllangan. Ulardan biri Qadimiy Bob (hozirgi Pop shahri) Farg'ona vodiysining Koson, Axsikent, Quva singari shaharlari bilan bir davrda shakllangan. IX asrda vohaning yirik shaharlaridan biriga aylangan.

IX-XI asrlarda yashagan arab sayyohlari Ibn Xordadbek va Istaxriyning yozma manbalarda Pop so'zi “Bob” deb tilga olingan bo'lib, bu arabcha “Darvoza” ma'nosini anglatgan.

1710 yilda Shayboniyalar saltanati tugatilgach, Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi vujudga keladi. Qo'qon xonligida Toshkent, Turkiston, Chimkent, Qo'qon, Xo'jand, Andijon, Namangan shaharlari muhim rol o'ynagan edi.³⁰

Aksariyat shaharlarda o'rta asrlarda 4 tadan dahaga bo'linib, har bir daha o'zining ma'muriy hukmdoriga, ya'ni bittadan qozisi va mingboshisiga ega bo'lgan. Namangan shahri ham Toshkent shahri kabi 4 qismga yoki 4 dahaga - Labbaytog'a, Sardoba, Chuqur ko'cha va Degrezlik dahalariga bo'lingan.³¹

Ushbu bo'linga xulosa qilib aytganda, O'rta asrlarda Farg'ona vodiysi shaharlari O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi o'z hududini kengaytirib borgan. Bunga aholi sonining oshishi va urbanizatsiya jarayonlari bevosita ta'sir ko'rsatgan. O'rta asrlarda shaharlar uch qismdan tashkil topgan bo'lib, ular ark, shahriston va raboddan iborat bo'lgan. Shaharlar radial-halqasimon strukturada shakllangan va qo'rg'ondevorlar bilan o'rab olingan.

Bobning uchinchi bo'limi “*Chor Rossiyasi davri shaharsozligi*” deb nomlanib, unda Chor Rossiyasi O'rta Osiyo hududiga kirib kelgach, dastlab tarixiy shaharlarning shakllangan strukturasi buzib yuborish maqsadida ularning asosiy qismi hisoblangan arkni, shahriston darvozalarini va qo'rg'ondevorlarini buzishga harakat qilinganligi, bunday harakatlar Toshkent, Samarqand va Farg'ona vodiysi shaharlarida kuzatilganligi, shu tariqa eski shaharlar strukturalari buzilib, ularning yonida yoki eski shaharning ma'lum bir qismida qurilish ishlari olib borilib, yangi shahar qismlari paydo bo'la boshlaganligi haqida fikr yuritilgan.

1876 yil esa Qo'qon xonligi tugatilib Turkiston general-gubernatorligi doirasida Farg'ona vodiysidagi viloyatlarni o'z tarkibiga olgan Farg'ona viloyati tuzilgan edi. Namangan shahri shu kundan e'tiboran uezd markazi sifatida rivojlana boshlaydi. 1876 yilda general-gubernator fon Kaufman Namanganni kengaytirib, uni ikki qismga bo'lish, uezd ma'muriyati va harbiylar uchun alohida joy ajratish, yangi shahar barpo etish haqidagi loyihani tasdiqlaydi.³² Ushbu loyihaga ko'ra, Namangan boshqa shaharlar kabi “eski” va “yangi” shahar hududlariga bo'linishi rejalashtirilgan edi. Yangi shaharda asosan ma'muriy binolar, rus harbiylari va savdogarlari yashashi uchun turar-uylar qurilishi rejalashtirilib, shu maqsadda shahardagi bek qo'rg'oni

²⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: 1989. 8-b.

³⁰ Yusupov I., Mirzaaliev E. Namangan shahri tarixidan lavhalar. 2010 y. – Namangan: «Namangan» nashriyoti. 25-b.

³¹ Mavlonov U., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. Toshkent: Akademiya, 2004 y., 68-69 b.

³² Туркестанские ведомости от 13 марта. 1876. №13.

devorining tashqi tomonidan alohida yer ajratilib, markazi shu yerdan boshlangan 6 ta radial ko'chaga asos solinadi.³³

Namanganning yangi shahar qismida 12159 ta turar-uy, 331 ta masjid, 16 ta mozor, 35 ta qalandarxona, 75 ta o'g'il bolalar maktabi, 21 ta madrasa, 35 ta korxonalar, shahar atrofida fabrika va zavodlar mavjud bo'lgan.³⁴ XIX asr o'rtalarida Yangiariq, XX asr boshlarida Rozenbax arig'i (hozirgi Shimoliy Farg'ona kanali) hamda temir yo'l o'tishi bilan shahar aholisi ko'payib, turli kasb egalarining soni oshib borgan.

Umuman olganda, Chor Rossiyasi davrida shaharlarda strukturaviy o'zgarishlar yuz berib, shaharlar "eski" va "yangi" shahar qismlariga ajratilgan. Qurilish ishlarida yangi materiallar qo'llanila boshlangan. Binolar pishiq g'ishtdan rus arxitekturasi va Yevropacha uslubda qurilgan.

Dissertatsiyaning "**Namangan shahrining o'rta asrlardagi arxitektura yodgorliklari**" deb nomlangan ikkinchi bobi to'rt bo'limdan iborat. "*Ilmiy binolar arxitekturasi*" deb nomlangan birinchi bo'limda Namangan viloyatida saqlanib qolgan, an'anaviy uslubda bunyod etilgan Azizxo'ja eshon madrasasi va masjidi, Mulla Qirg'iz madrasasi, G'oyibnazar Qozi madrasasi tarixi va arxitekturaviy yechimlari haqida so'z boradi.

Manbalarda keltirilishicha, "XIX asr boshlarida Qo'qon xonligiga bo'ysingan 30000 atrofida aholisi bo'lgan Namangan shahrida 10 ga yaqin madrasa bo'lib, ularda 4300 talaba tahsil olgan"³⁵.

Azizxo'ja eshon madrasasi va masjidi "Xo'jamning qabri" maqbarasi bilan yonma-yon bunyod etilgan bo'lib, uni XVIII asrning 2-yarmida Azizxo'ja ismli shaxs qurdirgan.

Madrasa 24 ta hujra, bir darsxona, bir qaznoq hamda masjiddan iborat bo'lib, hujralarning 14 tasi janubiy, 10 tasi sharqiy tomonda, qaznoq, darsxona, masjid va xonaqoh esa g'arbiy tomonda joylashtirilgan. Madrasaning sharqiy tomonidagi hujralari maqbaraga tutashtirib qurilgan. Madrasaga kirish eshigi ham shu tomonda bo'lib, ustida bolaxonasi bo'lgan. Ushbu hujralar hozirgi ko'cha o'rnida bo'lgan. Sharqiy tomondagi hujralar bizning davrimizgacha yetib kelmagan.

Ta'mirlash jarayonida mazkur hujralarning poydevori g'isht bilan ko'tarib qo'yilgan. Hozirda madrasaning janubiy tarafida saqlanib qolgan 12 ta hujra ta'mirlanib, buzilib ketgan ikki hujra qaytadan tiklangan. Bu hujralarning hammasi 3,5x3,5 metr o'lchamda qurilgan bo'lib, gumbazlari har xil shaklda ishlangan.³⁶

Namangan shahridagi yana bir yirik madrasa Mulla Qirg'iz madrasasidir. Ushbu madrasasi qurilishi 1910 yilda boshlanib, 1912 yilda tugallangan. Madrasada 41 ta hujra bo'lib, 3 ta yirik gumbaz mavjud.³⁷ Madrasa rejada hujralar bilan o'ralgan hovlilari noto'g'ri besh burchakni namoyon etadi. Madrasa shahar markazida joylashganligi sababli rejasi yer uchastkasi sharoitiga asosan qabul qilingan. Shimoliy-g'arbiy tomondan madrasaga masjid va darsxona birlashtirib qurilgan.

³³ Abdullaev O. Namangan viloyati. – Namangan: 1995 y.

³⁴ Kuldoshev Sh. Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston aloqalarida Namanganning o'rni. - Namangan: «Ta'lim va tafakkur», 2000 y., 3-son.

³⁵ O'sha asar. 69-b.

³⁶ Yusupov I.Yu., Mirzaaliev E.Yu. Namangan viloyati me'moriy obidalari sirlari. – Namangan: 2008 y.

³⁷ Samatov U. Usta Qirg'iz izlari izdoshlari. «Namangan», 1999 y.

Madrasa turli qavatli bo‘lib, bosh bino ikki qavatli qilib qurilgan, qolgan binolari esa bir qavatlidir.

G‘oyibnazar Qozi madrasasi To‘raqo‘rg‘on shahrining markazida joylashgan bo‘lib, Sho‘rolar davrida «qozi» so‘zi qoldirilib, G‘aynazar yoki G‘oyibnazar madrasasi nomi bilan atab kelingan. Ushbu madrasaning old tarzida, ya‘ni kirish eshigining yuqori qismida madrasa me‘mori usta Mulla Qirg‘iz nomi yozilgan. Madrasa 1892 yilda (ba‘zi manbalarda 1895 yilda) qurib bitkazilgan. Ushbu madrasa tarhi Mulla Qirg‘iz madrasasi tarhidan farqli ravishda to‘g‘ri to‘rtburchakli tarzda, 30x40 metr o‘lchamda qurilgan. Tarz qismi gumbazning balandligi 17 metr bo‘lib, ikki qavatli gumbaz va burchaklardagi mezanalardan tashkil topgan. Madrasa an‘anaviy tipologiyaga mos tarzda, ya‘ni tevarak atrofi hujralar bilan o‘ralgan hovli shaklida qurilgan. Binoning old kirish qismi pishgan g‘ishtdan barpo etilgan. Tevarak atrofidagi hujralari esa xom g‘ishtdan qurilgan.³⁸

Ikkinchi bobning “*Diniy binolar arxitekturasi*” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida maqbaralar, masjidlar haqida so‘z boradi.

Movarounnahrda maqbara qurilishiga qadimdan katta e‘tibor berilgan. Maqbaralar, asosan islom dini o‘rnatilgandan so‘ng yirik din, fan arboblari yoki shohlar nomini abadiylashtirish maqsadida qurilgan. O‘rta asrlarda qurilgan maqbaralarning aksariyati bir xonali tarhga ega bo‘lgan.

Namangan viloyati maqbaralariga xos me‘moriy-rejaviy xususiyatlarni umumlashtirgan holda quyidagicha jihatlarni belgilash mumkin³⁹:

1. Bir xonali maqbaralar, ularning tarhi murabba shaklida, hajmi kubsimon, gumbazli, ko‘rinishidan to‘rt tomoni bir xil.

2. Maqbaralarda oddiy g‘ishtin, rang-barang o‘ymakor va sirkor bezaklar qo‘llanilgan, kufiy yozuvlardan keng foydalanilgan va natijada betakror me‘morlik hosil bo‘lgan.

Namangan viloyati hududidagi aksariyat maqbaralar tipologiyasiga ko‘ra bir gumbazli bo‘lib, mashhur shaxslar uchun bunyod etilgan. Shuningdek, O‘rta asrlarda qurilgan maqbaralarning aksariyati bir xonadan tashkil topgan. Keyinchalik maqbaralar ikki, uch va undan ortiq xonalarni (ziyoratxona, go‘rxona, kirish xonasi) o‘z ichiga olgan. Davrlar o‘tishi bilan maqbaralar yoniga yana boshqa shaxsga tegishli maqbaralar, qo‘shimcha xonalar qo‘shilib, katta majmualarga aylantirilgan⁴⁰.

Tadqiqot doirasida Xojamning qabri, Mavlaviy Namangoniy maqbarasi, Mulla Bozor Oxund yodgorligi, Mavlono Lutfulloh majmuasi, Baliqko‘l majmuasi, Bibinaima ziyoratgohi, O‘nbir Ahmad ziyoratgohi, Langarbuva majmuasi, Yusufxon Eshonto‘ra majmuasi kabi obidalar tarixi va arxitekturasi o‘rganilgan. Shuningdek, Namangan viloyatidagi hozirda saqlanib qolgan tarixiy masjidlardan Atoullixon To‘ra masjidi, Shayx Isoq eshon masjidi, Maxdumi eshon masjidi, Kosonsoy jome‘ masjidi, G‘o‘zapoya masjidi va boshqa shu kabi masjidning tarixi, tipologiyasi va arxitekturaviy yechimlari ko‘rib chiqilgan.

³⁸ Ro‘zinov B., Rajabova S., Ismoilov Yu., Kosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. – Namangan: 2013 y. 60-b

³⁹ O‘rolov A., Qodirova T. O‘rta Osiyo arxitektura yodgorliklarining tipologik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: 2011. 26-30 betlar.

⁴⁰ Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me‘morchiligida inter‘er. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «FAN» nashriyoti, 2005 y. 37-b.

Umuman olganda, Namangan viloyatida diniy binolar qurilishiga katta ahamiyat berilib, ularning arxitekturasi ham o'ziga xos tarzda shakllangan. Maqbaralar ko'proq bir kamerali tarzda bunyod etilgan. Masjidlar kompozitsiyasida kirish qismiga e'tibor qayta ta'mirlanayotgan yoki qayta qurilayotgan binolarda ustuvorlikka ega bo'lib, ular ulug'vor tarzda baland minoralari bilan qurilgan.

“*Savdo inshootlari va hammomlar arxitekturasi*” deb nomlangan uchinchi bo'limda chorsu, tim, toq, rasta, kappon kabi savdo inshootlariga to'xtalib o'tilgan.

Chorsular tarixiy shaharlarning asosiy chorrahasidagi usti yopiq bo'lgan savdo-sotiq joyi bo'lib, aksari shaharning markazida joylashgan. Tim - usti yopiq bozor, savdo rastasining baland gumbazi ma'nosida keladi. Ushbu savdo binolari qadimda asosan yirik shahar markazlarida, ko'chalar kesishgan chorrahalar bo'ylarida, guzar maydonlarida, karvonsaroylar va boshqa binolar yaqinida joylashgan.

Toqlar ham shahar markazida, ya'ni chorrahalarda qurilib, bir necha gumbaz bilan yopilgan. Rastalar bozorlarda ko'chani chetiga qurilgan savdo do'konlari hisoblangan. Kappon og'ir narsalar tortiladigan bir pallali ulkan tarozi o'rnatilgan, usti tim don bozori, g'alla bilan savdo qilinadigan rasta ma'nosini beradi. Hozirda ham bozorlarda g'alla sotiladigan joylar kappon deb yuritiladi.⁴¹

Sharq bozorlarining shakllanishi juda qadimgi zamonlardan boshlangan. “Avesto” kitobida “chavrusuk” so'zi bo'lib, u to'rt tomonli bozor yoki chorsu ma'nolarini bildirgan. Bundan chorsuning dastlab savdo inshooti emas, chorrahada joylashgan bozor ekanligini va keyinroq ushbu bozorda bunyod etilgan savdo binosiga chorsu nomi o'tganligini anglash mumkin.⁴²

I.Yusupov, E.Mirzaalievlarining keltirishicha: “1814 yilda Namanganda bo'lgan rus sayyohi F.Nazarov shahar bozorlari, aholi zichligi, paxta, qog'oz fabrikalari va boshqalar haqida yozib qoldirgan. Namangan shahri 15 chaqirim uzunlikdagi aylanma devor bilan o'ralgan, bozori Qo'qon bozoridan ancha katta bo'lgan”.⁴³

Tarixiy Namangan shahrining Sardoba dahasida qadimgi Marg'ilon ko'chasining boshlanish qismi Isfarxon deb atalgan. Hozirgi 5 - va 6 - o'rta maktablar o'rni kappon bozori deb atalib, bu yerda asosan oziq-ovqat mahsulotlari sotilgan. Kappon bozori degan nomni katta yoshdagi kishilar hanuz tilga olib kelishadi.⁴⁴

Namanganda shahar markazida joylashgan Chorsu bozori 500 ta yoyma do'konga ega bo'lgan⁴⁵. Degrezlik dahasida g'ishtko'prikdan kun chiqar tomonda ko'chani ikki tomonida temirchilik, misgarlik, zargarlik, aravazoslik ustaxonalari bo'lib, aravaga qo'shiladigan otlarga to'qim, bo'yinturuq, qamishdan bo'yra, bordon kabilar to'qilgan.⁴⁶

⁴¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. www.ziyouz.com kutubxonasi.

⁴² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. www.ziyouz.com kutubxonasi.

⁴³ Yusupov I., Mirzaaliev E. Namangan viloyati me'moriy obidalari sirlari. –Namangan: 2008 y., 16-b.; Xasanov X. O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar. –Toshkent: «O'zbekiston», 1964 y., 218-b.

⁴⁴ Mavlonov O., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. –Toshkent: «Akademiya», 2004 y., 68-69 b.

⁴⁵ Yusupov I., Mirzaaliev E. Namangan shahri tarixidan lavhalar. – Namangan: «Namangan» nashriyoti, 2010 y. 34-b.; Mamatmusaev T.Sh. «O'zbekiston tarixiy shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi» Arxitektura bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiya, 2019 y. 154-b.

⁴⁶ Yusupov I., Mirzaaliev E. Namangan shahri tarixidan lavhalar. – Namangan: 2010 y., 35-b.

Namangan shahrida Sardoba bozori bo'lib, hozirda ham shu nomdagi bozor faoliyat ko'rsatib keladi. Ushbu qadimiy bozorda qovun-tarvuz va boshqa poliz mahsulotlari bilan savdo qiluvchi rastalar mavjud bo'lgan.⁴⁷

Tarixiy shaharlarda hammomlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Manbalarda yozilishicha, shuningdek arxeologiya ma'lumotlarida berilishicha X-XII asrlarda O'rta Osiyoda hammomlar qurilgan. Narshaxiy X asrdayoq Buxoroda bir nechta hammomlar bo'lganligini yozib qoldirgan.

A.O'rolov⁴⁸ va T.Qodirova hammomlar tipologiyasiga alohida to'xtalib o'tgan. O'rta Osiyo shaharlarida qurilgan hammomlarning sonini ko'rib o'tadigan bo'lsak, XIX asrda Buxoro shahrida 8 ta bozor, 9 ta guzar hammomlari, XIX asr oxirida Samarqand shahrida 7 ta bozor va guzar hammomlari ishlab turgan. Shuningdek, Toshkentda bu davrda 5 ta, Qarshi shahrida 4 ta hammomlar faoliyat ko'rsatgan.

O'rta Osiyoning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Xiva, Kosonsoy, Nurota kabi shaharlaridagi tarixiy hammomlarda binoning asosiy cho'milish xonalari pol osti qizitish quvurlari orqali tarqaluvchi issiq havo yordamida isitilgan.

Namangan viloyatida ham tarixiy hammomlar qurilgan bo'lib, tadqiqot doirasida Gungalak yer osti hammomi, Dahyakota qishlog'idan topilgan hammom va Latifning hammomi kabilarning tarixi va arxitekturaviy yechimlariga to'xtalib o'tilgan.

Gungalak yer osti hammomi qadimiy Kosonsoy shahrining markazida, jome' masjidining ro'parasida asosiy qismi yer ostida joylashgan bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, hammomda ishlatilgan g'ishtlar IX-X asrlarga, ya'ni qoraxoniylar davriga mansub. Hammom 1,2 metr qalinlikdagi devorga ega, gumbazlarining balandligi xonalarning bajargan vazifasiga qarab 2.5 m, 3.10 m va 4 metrlar oralig'ida bo'lgan.⁴⁹

Shuningdek, tarixiy hammomlardan Namangan viloyati, Uychi tumani Jiydakapa mahalla fuqarolar yig'ini, Dahyakota qishlog'ida yashovchi fuqaro A.Hakimovning hovlisidan qadimgi bino poydevori qoldiqlari topilgan. Bu inshoot taxminan IX-XI asrlarga tegishli ekanligi aniqlanib, arxeolog olimlar A.Anorboev, B.Ro'zinov, Sh.Nasriddinov, Yu.Ismoilovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Arxeologik o'rganishlarga ko'ra, bu inshoot hammom qoldiqlari ekanligi aniqlangan. Hozirda hammomning saqlanib qolgan xonalari ochib o'rganilgan.

